

O'ZBEK VA INGLIZ BADIY DISKURSIDA DINIY FRAZELOGIZMLARNING MADANIY-PRAGMATIK TALQINI

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

Termiz davlat universiteti 3-bosqich (DSc) doktoranti

Tel: +998904196085

E-mail: uglonoy@yahoo.com

Annotatsiya:

Maqolada o'zbek va ingliz badiiy matnlarida qo'llanilgan diniy frazeologik birliklar lingvomadaniy va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Diniy birliklarning semantik siljishi, konnotativ kengayishi va kommunikativ strategiyalari ochib beriladi. Ularning zamonaviy diskurslardagi faoliyati, diskurslararo o'zgarishi va madaniy qatlamdagi talqini yoritiladi.

Kalit so'zlar: diniy frazeologizm, lingvomadaniyat, pragmatika, diskurs, ingliz adabiyoti, Boburnoma, Shekspir.

O'zbek va ingliz badiiy diskursida diniy frazeologik birliklar nafaqat tilning tasviriy vositasi, balki madaniy xotira, tarixiy-estetik ong va milliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ular xalqning diniy-ma'naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari, estetik didi, tarixiy-madaniy tajribalari va ruhiy izlanishlarini umumlashtiruvchi madaniy kod sifatida xizmat qiladi. Diniy frazeologik birliklar o'z mohiyatiga ko'ra sinkretik xususiyatga ega bo'lib, ular badiiy tasvir, diniy ishora, ijtimoiy signal va psixologik konnotatsiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu birliklar ko'pincha ramz (masalan, "Ko'ngling Ka'ba bo'lsa", "farishtadek odam"), simvol (masalan, "iblis vasvasasi", "sir ilmi"), tashbeh (masalan, "iymon nuri bilan to'lg'on ko'zlar") yoki istiora (masalan, "lahad ichra fig'on aylamoq") shaklida namoyon bo'lib, ular orqali inson va iloh, gunoh va najot, hayot va o'lim, yaxshilik va yovuzlik kabi fundamental tushunchalarning badiiy talqini amalga oshiriladi.

O'zbek adabiyotida diniy frazeologik birliklar ko'proq tasavvufiy ruhda, Haqqa yetishish, qalb pokligi, sabr va tavba g'oyalari bilan bog'liq. Jumladan, Mashrab she'riyatida "dard ahli", "lahad ichra fig'on aylamoq", "fano ichra bo'lmoq", "baxti qaro" kabi birliklar ilohiy ishq yo'lida ruhiy iztirobni anglatadi. A. Navoiy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro ijodida "zikr qilmoq", "yor bilan suhbat qurmoq", "ma'rifat nuri", "sir ilmi" kabi birikmalar orqali ruhiy poklanish jarayoni ifodalanadi. Boburnomada esa diniy frazeologizmlar turmushiy va siyosiy kontekstda madaniy qatlam bilan uyg'unlashgan. Masalan, "shahodat barmog'ini kesmoq" birligi – diniy e'tiqoddan voz kechish ramzi sifatida, "qalinlik qilmoq" esa islomiy nikoh madaniyatiga oid birlik sifatida ishlatiladi. "Munojotga bosh qo'ymoq", "shafolat", "rahmatiga bordi", "namozi digar" kabi frazemalar iltijo, duo, oxiratga tayyorgarlik holatlarini anglatadi.

Ingliz adabiyotida esa diniy frazeologizmlar ko'proq dramatik kuch, ironik anglash va ruhiy kurash orqali beriladi. Shekspirda bu an'anaviy holatga aylangan. "To be a devil porter", "to circumvent God", "to serve the angel", "the ghost come from the grave" kabi birikmalar insonning zaifligi, fojiaiy tanlovlar, riyo va halokatni ifodalaydi. Ular diniy g'oyalarni shubha ostiga oluvchi yoki uni chuqur falsafiy mushohadaga chorlovchi vositadir.

Diniy frazeologizmlar turli diskurslarda (diniy, siyosiy, shaxsiy, tibbiy) semantik siljishlarga uchraydi. Masalan, "Alhamdulillah" birligi diniy diskursda – shukr va taslim bo'lish, shaxsiy nutqda – his-tuyg'u

ifodasi, siyosiy diskursda – ijtimoiy ruhlantirish, tibbiy kontekstda – o'ziga tasalli berish ma'nolarida ishlatiladi. "Saraton tashxisi qo'yildi, lekin Allohdan umidim bor. Alhamdulillah, hali tirkman" – bu ibora pragmatik o'zgarishning yaqqol namunasidir.

Madaniy-pragmatik tahlil shuni ko'rsatadiki, diniy frazeologizmlar xalqning mentaliteti, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy qadriyatlarini estetik uslubda ifoda etish bilan birga, turli diskurslarda o'z funksiyalarini kengaytirib boradi. Ular ham estetik, ham kommunikativ, ham ma'naviy yuklamaga ega. Ingliz va o'zbek adabiyotida bu birliklarning aksariyati diniy konnotatsiya bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar – poklik, sabr, mehr, najot, iltijo, najot topish, vasvasa, vasiyat kabi tushunchalarni yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, diniy frazeologik birliklar lingvomadaniy tabiatga ega bo'lib, ularni tahlil qilish orqali xalq ruhiy olamini, madaniy dunyoqarashini, diniy qadriyatga bo'lgan estetik yondashuvini tushunish mumkin. O'zbek va ingliz adabiyoti bu borada boy frazeologik xazinaga ega bo'lib, ular madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Омонтурдиев. Профессионал нутқ эвфемикаси. (Сурхондарё ва Қашқадарё чорвадорлари нутқи асосида): монография. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси "Фан нашриёти", 2006. – 232 б.
2. Z.M.Bobur. Boburnoma. –Toshkent: "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, – 2019. – B. 448
3. A.Madvaliyev. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2021.
4. W.Shakespeare. Hamlet. The tragedy. – London: Blackie and Son limited, University of Toronto, 1965. – p.264
5. W.Shakespeare. Macbeth. Tragedy. – Glasgow: The Villafield Press, 1907. – p.212.